**Yordamchi so’z turkumlari variant 1**

1. Iroda yaxshi xulqi, chiroyli muomalasi bilan ham obroga erishishi mumkin edi-ku!
**Ushbu gapdagi sof ko’makchi qanday ma’no ifodallagan?**
A) fikir mavzusi B) maqsad
C) birgalik D)vosita

**2. Faqat vazifadosh ko’makchilar ishtirok etgan qatorni aniqlang.**
A) bilan,orqa,tepada,o’rtada
B) sari,boshida,qadar,maqsadida
C) ustida,ichida,qoshida,tomon
D) sababli, oldida, uchun, qarab

3. 1) Devor usti yomg’irdan iviy boshladi.
2)Kitob ustida uzoq ishladi.
3) Nosir o’z ustida ko’p ishlardi.
**Ushbu gapdagi ust so’zi qaysi javoblarda to’g’ri izohlangan?**
A) 1-va 3- gaplarda vazifadosh ko’makchi,2-gapda mustaqil so’z
B) 1-va 2-gaplarda mustaqil so’z 2-gapda vazifadosh ko’makchi
C) 2-va 3- gaplarda vazifadosh ko’makchi 1-gapda mustaqil so’z
D)2-va 3- gaplarda mustaqil so’z 1- gapda vazifadosh ko’makchi

**4. Qaysi gapda ko’makchi vazifasida kelishi mumkin bo’lgan 2 ta so’z qo’llangan?**
A) -Endi sening o’zingni kirgizmasachi?-deb kuldi Bektemir aka yigitning yana ham ingichka tortgan ko’ylakchan gavdasiga qarab.
B) Bir mahal muyulishga kelganlarida chaqmoq chaqilgandek bir nima yilt etdi-da,ikkalalarining ham ko’zlari qamashdi,bir zum hech narsa ko’rinmay qoldi.
C) U negadur birdan darmonsizlashdi,tomog’i xirillab, ovozi chiqmay qoldi,chakkasini ushlagan qo’lida qon yuqini ko’rib yana vahimasi oshdi.
D) Akbarali omonat o’tirgan jo’yidan gandiraklab,yeqilib tushishiga sal qoldi.

5. 1. Umarali o'rnidan turdi-da, tashqariga chiqib ketdi.
2. Samar shoshib-pishib do'konga kirib chiqdi.
3. U bu gapni eshitib chiqdi-ketdi.
4.Direktor hujjatlar bilan tanishib chiqdi.
**Ushbu gaplardagi** chiqdi **fe'li haqidagi qaysi fikr to'g'ri?**
A) 1-3-gaplarda ko'makchi fe'lni ergashtirib kelgan yetakchi fe'l, 2-gapda qo'shma fe'lning tarkibiy qismi, 4-gapda ko'makchi fe'l
B) 3-gapda ko'makchi fe'lni ergashtirib kelgan yetakchi fe'l, 1-2-gaplarda qo'shma fe'lning tarkibiy qismi, 4-gapda ko'makchi fe'l
C) 2-4-gaplarda ko'makchi fe'lni ergashtirib kelgan yetakchi fe'l, 3-gapda qo'shma fe'lning tarkibiy qismi, 1-gapda ko'makchi fe'l
D) 1-2-3-gaplarda ko'makchi fe'lni ergashtirib kelgan yetakchi fe'l, 4-gapda qo'shma fe'lning tarkibiy qism

**6. Qaysi gapda zidlov bog'lovchisi uyushiq bo'laklarni bog'lab kelgan?**
A) U nafaqat kattalarga, balki kichiklarga ham shunday muomalada bo'lar edi.
B) Dunyoda kasblar ko'p, biroq odamiylik kasbi hammasidan ulug'dir.
C) U turmushidan, o'tgan kunidan rozi, lekin ana shu roziligini tushuntirib berolmas edi.
D) Hamma gullarning hidi bor, ammo rayhonning hidi bo'lakcha.

**7. Vazifadosh bog'lovchilar yana qanday vazifada kelishi mumkin?**
1) yuklama; 2) ko'makchi; 3) modal so'z; 4) undov so'z
A) 1, 2, 3, 4 B) 1, 2, 3 C) 1, 2 D) 1

**8. Atash ma'nosini tamoman yo'qotib, faqat o'zi birikkan so'zni boshqa so'zga tobelantirib bog'lash uchun xizmat qiladigan so'zlarni toping.**
A) lekin, shuning uchun, hamda
B) uchun, singari, kabi, tufayli
C) axir, nahotki, menimcha, chamasi
D) tomon, keyin, misoli, qadar

**9. Sof ko'makchilar berilgan javobni toping.**
A) sari, sayin, so'ng, boshida
B) singari, misoli, haqida, bo'ylab
C) tomon, boshida, uchun, orqali
D) uzra, tufayli, haqida, qadar

**10. Qaysi gapda inkor yuklamasi qo`llangan?**
A) Men-ku yolg`iz edim,Na otam, Na onam, na oilam bor...
B) Na martaba, na boyligi bor edi uning.
C) Na so`ngiga yetoldi ishning, Na dunyoni anglab ulgurdi.

@ona_tili_va_adabiyot_N1

D) Na qo`shiq, na kulgi, na churq etgan ovoz eshitilmadi.

**11. Bosh kelishik shakldagi ismlarga qo`shiladigan ko`makchilarni aniqlang.**
A) Bilan, kabi, singari, uchun, sari
B) Singari, qaramay, yarasha, asosan
C) Bilan, muvofiq, tomon, sari
D) Chog`li, bo`ylab, sayin, yarasha

**12. Qaysi gap tarkibida sof ko`makchi qo`llangan?**
A) Ma`naviyat insonga ona suti, ota namunasi, ajdodlar o`giti bilan singadi.
B) O`z tarixi va ajdodlarini siylagan xalqning kelajagi, albatta, porloq bo`ladi.
C) Xalqimiz faqat jisman emas, ruhan ham uyg`oq bo`lmog`i darkor.
D) Xalqning sabr-toqati cheksiz emas. U dengizga o`xshaydi: goh to`lib, goh ozayib turadi.

13. Usmon Nosir ham mashhur siymolar kabi juda yoshligidan ko`p ijobiy xislatlarga ega bo`lgan edi. U nihoyatda zirak, idrokli, keng mushohadali, o`ta qiziquvchan, uquvli, bilimga chanqoq, mehnatkash edi va shu fazilatlari bilan ajralib turardi. Usmon Nosir o`z ustida ko`p ishlardi… Usmon Nosir she`rlarida jimjimadorlik ko`rinmas, fikr-tuyg`u soda til orqali harorat bilan bayon qilinar edi.
**Mazkur matndan nechta yordamchi so`z qo`llangan?**
A) 7 B) 5 C)6 D) 8

**14. Qaysi qatorda vazifadosh ayiruv-chegaralov yuklamasi qo`llangan?**
A) Toki odamlar meni ko`rmasin, faqat mehnatimni ko`rishsin.
B) Bu holda mazkur adabiy ilmlarni, ya`ni til va adabiyot bilan bog`liq ilmlarni anglatadi.
C) Vaholanki, til davlat miqiyosida qo`llanilsagina milliy til bo`lib qoladi va ravnaq topadi.
D) Yomg`ir yog`yapti shekilli, deb o`ylab, boshini ichiga tiqib, yotaveribdi, keyin bitta-bitta hiqildog`idan tutib xaltaga solaman.

15. «Sizlar, ya’ni o‘zini ilm-u hikmatda, dunyoni anglab
yetishda barkamollikka erishgaiidek chog‘layotgan mutakabbir bandalar kibr-u havoga berilmang, ajal sizlarni
yerto'la va yer ostidagi sichqon-u kalamushlarga qo‘shib, yer yuzidan supurib tashlaydi, ortingizda qolayotgan avlod-u ajdodlaringiz yaratgan barcha moddiy va ma’naviy boyliklar kurrayi zamin bilan birgalikda kunpayakun bo‘ladi...»
**Ushbu matnda nechta olmosh bor?**
A) 3 ta B) 4 ta C) 2 ta D) 1 ta

**16. Ko‘makchilar bilan birga kelgan so'zlar odatda qaysi kelishik shakllarida bo‘lmaydi?**
A) qaratqich va tushum
B) tushum va o‘rin-payt
C) bosh va qaratqich
D) jo'nalish va chiqish

17. 0‘rtamizdagi sovuqlikning hali ham davom etayotganiga qaramay, tan olishim kerak: Narimon o‘lguday chiroyli edi. Menga yoqmaydigan bir narsasi bo‘lsa, u ham noz-u karashmalarga o‘chligi edi. Xotinlar ichida-ku o'zini uncha-muncha yaxshi tutardiya, lekin, mabodo oraga bitta-yarimta erkak aralashib qolguday bo'lsami, ana unda yuzi o‘zgarar, ovozi, qahqahalari, qiliqlari butunlay boshqa tus olardi.
**Ushbu parchada nechta so‘z yasovchi qo‘shimcha qo'llangan?**
A) 9 ta B) 8 ta C) 5 ta D) 4 ta

18. Axtarib topganimda o‘n ikki buloq,
Qulbimda o‘n ikki she’r birdan jo‘sh urdi.
Hammasi shivirlaydi sizdek sha’n, inoq,
Ko'ksimga naq o‘n ikki bahor yugurdi.
**Ushbu she’riy parchaga aloqasi bo‘lmagan javobni toping.**
A) ismlarga xos munosabat qo‘shimchasi 7 o'rinda
qatnashgan
B) kesimlar tub so‘z, affiksatsiya va kompozitsiya usulida
yasalgan so‘zlar bilan ifodalangan
C) metafora usulida ma’nosi ko'chgan so‘zlar bor
D) ta’kid-kuchaytiruv yuklamasi ishtirok etgan

19. Bobur bunyod etgan davlat garchi bobolariniki singari
bepoyon mintaqalarga yoyilmadi-yu, u o‘z saltanatining sultoni, buyuk imperatori darajasiga ko‘tarildi. 0 ‘z mulkida boshqaruv tizimini mahkam tutib, uni mohirlik bilan idora qildi. Bu

@ona_tili_va_adabiyot_N1

o‘lkani 332 yil mahorat bilan boshqargan buyuk sulolaga asos soldi.

**Matnda nechta yordamchi so‘z turkumiga oid birlik qatnashgan va ularning turlari?**

A) 4 ta: 1 ta bog‘lovchi, 1 ta yuklama, 2 ta ko‘makchi

B) 5 ta: 3 ta ko'makchi, 1 ta bog'ovchi, 1 ta yuklama

C) 4 ta: 2 ta bog‘lovchi, 2 ta ko‘makchi

D) 5 ta: 3 ta ko‘makchi, 2 ta bog‘lovchi

20. Bir vaqtlar ishqiy mojarolarni yolg‘iz ertaklardan tinglagan Gulnor, bir qarichlikdan mehnatga uringan bu jafokash qiz, endi o‘zi ishqning olov ko'ylagida yashar edi.

**Berilgan gap haqidagi qaysi hukm xato?**

A) gapda ajratilgan bo‘lak mavjud

B) yolg'iz so'zi ayiruv yuklamasi o'rnida ishlatilgan

C) ikki o'rinda tovush o'zgarishi kuzatiladi

D) bir o‘rinda qaratqich kelishigi belgisiz qo'llangan

21. 1) Bir necha qo‘sh ho'kiz, ot, omoch-bo‘yinturuqlar ham shularning nomiga yozildi.
2) U ertalabdan buyon hamma ishlarini nomiga bajarardi.

**Ushbu gaplardagi nomiga so‘zi qaysi qatorda to‘g‘ri izohlangan?**

A) 1 - gapda turlangan ot, 2 - gapda ko'makchi

B) 1 - gapda turlangan ot, 2 - gapda holat ravishi

C) Har ikki gapda ravish

D) 1 - gapda ravish, 2 – gapda turlangan ot

**22. Qaysi gapda ko‘makchi fe’llaridan birining asosi ot turkumidagi so‘z bilan omonimlik hosil qila oladigan ko'makchi fe’lli so‘z qo'shilmasi qatnashgan?**

A) Yutug‘imiz shundaki, har bir xodim o‘z vazifasini biladi va uni vijdonan bajaradi.

B) Kimki birovga yomonlik qilsa, u shu dunyoning o‘zidayoq g‘arq bo‘lib ketadi.

C) Do'stlarimga Ra’noning bu gapi chunonam go‘zal dastak bo'ldiki, o‘zlarini qushdek yengil sezganlaridan ochilib-sochilib, avvalgiday bordi-keldini avjlantirib yubordilar.

D) Qurama tog‘larini o'rganib qo‘ya qolsa nima qilar ekan?!

**23. Qaysi gapda ko‘makchi fe’lli so‘z qo‘shilmasi ishtirok etmagan?**

A) Nihoyat, jo‘jalar tuxumlarni yorib chiqibdi, voy, biram nozik, biram chiroyli ekanlarki, ota-onalari sevinib, bedazorni boshlariga ko‘tarib sayrab yuborishibdi.

B) Qurama tog‘larini o‘rganib qo‘ya qolsa nima qilar ekan?!

C) Men sizga O‘zbekistonning uzoq qishloqlaridan birida o‘sgan, beg‘ubor yaylov havosida chiniqqan, bir necha bor yirtqich hayvonlar hujumiga yo'liqqan qo‘rqmas va kamtar, kamgap va qaysar bir bola haqida hikoya qilmoqchiman.

D) Kimki birovga yomonlik qilsa, u shu dunyoning o‘zidayoq g‘arq bo'lib ketadi.

24. Ilm olish igna ... quduq qazish demakdir. Bilmaslik ayb emas, bilim... intilmaslik aybdir. Bilim har qanday boylik... afzal sanaladi.

**Ushbu parchada ko'p nuqtalar o'rnida yozilishi kerak bo'lgan til birliklari to'g'ri ko'rsatilgan javobni aniqlang.**

A) ko'makchi, jo'nalish kelishigi go'shimchasi chiqish kelishigi qo'shimchasi

B) biriktiruv bog'lovchisi, chiqish kelishigi qo'shimchasi, chiqish kelishigi qo'shimchasi

C) biriktiruv bog'lovchisi, jo'nalish kelishigi qo'shimchasi, tushum kelishigi qo'shimchasi

D) ko'makchi, qaratqich kelishigi qo'shimchasi jo'nalish kelishigi qo'shimchasi

**25. Jo'nalish kelishigidagi ismlar bilan birga qo'llana oladigan ko'makchilar berilgan qatorni toping.**

A) ko'ra, qaramay, yarasha, bo'ylab, muvofiq

B) qaramay, asosan, doir, tomon, uzra

C) ko'ra, yarasha, asosan, qarab sari

D) tomon, yarasha, muvofiq, doir, asosan

26. **Qaysi gapda yasama otga birikib kelgan sof ko'makchi mavjud?**

A) Halollik buyuklik sari dastlabki qadamgina bo'lib qolmay, buyuklikning ayni o'zidir.

B) Bitmas-tuganmas bilimning tagida mashaqqatli mehnat yotadi.

C) Nigora yaxshi xulqi, chiroyli muomalasi uchun ham obro‘ga erishishi mumkin edi-ku!

D) Imonli kishi aql-zakovat sohibi bo'lish bilan birga insoniy, ijtimoiy muammolarni hal etishda faol ishtirok etadi.

27. Hijronda necha noma bila so'zlashaling,
Yo sen beri kel, yo men borayin anda.

**She’riy misralarda bog'lovchining qaysi turi ishtirok etgan?**

A) ayiruv B) zidlov
C) sabab D) inkor

**28. Qaysi gapda vazifadosh bog‘lovchi shaxs otlarini bog‘lab kelgan?**

A) «Mehrobdan chayon≫ yaxshilig-u yomonlik o‘rtasidagi azaliy kurash aks etgan go‘zal asardir.
B) Bugun Jahongir bilan Alisher ikki baho olishdi.
C) Endi buva bilan nevara teng odamday gaplashishadi.
D) Bog'lovchi qatnashgan gap berilmagan

**29. Qaysi gapda balki so‘zi zidlov bog‘lovchisi vazifasida kelgan?**

A) Inson go‘zalligi bilan emas, balki mehnati bilan kamol topadi.
B) Yillar o‘tib, balki, bizni unutib yuborishar.
C) Balki, ertalab o‘ziga isitib berish uchun shunday degandir.
D) Tolibjon, balki, ularni avaylab adashayotgandirsiz?

30. **«Aytilgan so‘z - otilgan o‘q» maqoli qaysi asarda uchraydi?**

A) «Qiyomat qarz»
B) «Mardlik afsonasi»
C) «Oq kema»
D) «Me’mor»

@Ona_tili_va_adabiyot_N1